

Bo'lajak Boshlang'ich Sinf O'qituvchilarining Kasbiy Mahoratini Rivojlantirishda Pedagogik Refleksiyaning O'rni

Vapayeva Fazilat Shuhratjomovna¹

Anatatsiya: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z ijodiy qobiliyatlarini darslarini tashkil etishga yo'naltiradi: diqqatni jamlaydi, sinfni va dars mazmunini modellashtiradi, bosqichli toshiriqni rejalashtiradi, ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining dars muhitiga psixologik "sho'ng'ishi" sodir bo'ladi. Bunda u o'zini, o'z qobiliyatlar va faoliyatini refleksiya qiladi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish va yanada rivojlantirishda refleksiyaning qanchalik o'rniga ega ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: reflektiv fikrlash, releksiv ko'nikmalar, ijodiy fikrlash, lateral anglash, pedagogik mahorat.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [1] va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" [2] asosida mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilgan tub islohotlar shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishga, ya'ni har tomonlama bilimli, dunyoqarashi keng, raqobatbardosh, komil insonni tayyorlashga qaratilgan. Bunga erishish uchun talaba-talabalarni uzluksiz ta'lim bosqichlarida turli sohalarda bo'yicha egallagan bilimlarni kundalik hayotda amaliy qo'llashga o'rgatish orqali ularda reflektiv ko'nikma va malakalarni hosil qilish kerak bo'ladi. Bugungi globalashuv davrida ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabalarga nafaqat bilim berish hamda egallagan bilimlari asosida reflektiv ko'nikma va malakalar hosil qilish, balki ularni amaliyotda qo'llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat. Bu barcha fanlarni o'qitishda kompetent yondashuvni joriy etish vazifasini o'rta qo'ydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim jarayonida reflektiv fikrlashga o'rgatish masalalari bo'yicha respublikamiz olimlari N.N.Azizxodjaeva, U.Sh.Begimqulov, R.H.Djuraev, Sh.Q.Mardonov, O.Musurmonova, N.A.Muslimov, U.N.Nishonaliev, N.Ortiqov, B.X.Rahimov, O'.Q.Tolipov, D.Sharipova, Sh.Shodmonova, N.M.Əgamberdieva, A.A.Xalikov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

MDH mamlakatlarida reflektiv ko'nikmalarni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari L.S.Vigotskiy, P.Ya.Galperin, M.G.Davletshin, V.V.Davidov, A.K.Markova, N.V.Kuzmina, S.L.Rubinshteyn, E.G'oziev va boshq. Tadqiqot ishlariida o'z aksini topgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.).

MUHOKAMA

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisida nafaqat mantiqiy fikrlash, balki lateral fikrlash rivojlangan bo'lishi kerak. Lateral fikrlash – bu muammoni hal qilish uchun mavjud bo'lgan yondashuvlardan foydalanib, nostandart, noan'anaviy fikrlash qobiliyatidir, bu mantiqiy fikrlashsiz bo'lgan tushuncha sanaladi. "Lateral fikrlash shaxsning fikrlashini vertikal fikrlashga o'zgartiradi"[3].

Vertikal fikrlashda, inson mantiqiy aniq, xatosiz va izchil fikrlash zanjirini hosil qiladi. Bir bo'g'indagi xato noto'g'ri xulosaga olib keladi. Ushbu fikrlash usuli, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda doimo qo'llanilmaydi. Chunki ta'lim va tarbiyaning o'ziga xosligi bolalarga ijodiy va individual yondashuvga asoslangan.

Ijodiy fikrlash – iqtidor emas, bu o'rganilishi va rivojlanishi mumkin bo'lgan qobiliyat. Bu o'qituvchining ijod qilishi va yangilikni yaratishi uchun o'zida mavjud bo'lgan qobiliyatini kuchaytirishga imkon beradi va bolalarni o'qitishda yuqori samaradorlikka va muvaffaqiyatga olib keladi.

Pedagogik jarayondagi ijodkorlik qobiliyati va innovatsiyalar – zamonaviy o'zgaruvchan ta'lim muhitidagi global muvaffaqiyatning asosiy manbalari xisoblanadi. O'qituvchi jahon ta'lim tizimidagi jadal o'zgaruvchi tendentsiyalar va o'z sohasida samarali ishlashga ehtiyoji paydo bo'lganida – u lateral fikrlashga muhtoj bo'lib qoladi. Agar o'qituvchida ijodiy fikrlashga ehtiyoji mavjud bo'lsa, unda u lateral fikrlashga o'rganishi zarur. Ijodiy fikrlash esa boshlang'ich sinf

¹ Andijon Davlat Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

o'qituvchilarida doim mavjud bo'lishi kerak. Maqsadli g'oyalarni ishlab chiqishga qaratilgan lateral fikrlashning biror-bir bosqichda xatolik bo'lishi mumkin, lekin umumiy natijaga ta'sir ko'rsatmaydi. Lateral fikrlashda klassifikatsion cheklanishlar va inkor etishlar bo'lmaydi, lateral fikrlash yo'nalishni o'zi belgilaydi hamda keyingi izlanishlarga yo'naltiradi, bundan tashqari, u muammoni echish uchun ixtiyoriy maqsadga muvofiq imkoniyatni izlab, keskin siljishlarni amalga oshirishi mumkin. Lateral fikrlash mavjud tafakkur modellarni va ustanovkalarni o'zgartirishga yo'naltirilgan, u muqobil yo'llarni izlashga, dastlabki shartlarni kombinatsiyalashga, qayta ko'rib chiqishga, qismlarga ajratishga asoslanadi. Mazkur tashkil etuvchilar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zarur xisoblanadi.

Lateral va vertikal fikrlashlar bir-biri bilan bevosita bog'liq. Lateral fikrlashni etti yosh ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchisi yoshidan boshlab mashq qilish mumkin va zarur, lateral fikrlashni bolalarda rivojlantirish uchun avvalo o'qituvchi o'zi unga ega bo'lishi kerak. Lateral fikrlashning maqsadi stereotip va ananaviy metodlardan qutilish va yangi, ziddiyatli, intuitsiyaga asoslangan ijodiy va o'ziga xos metodlarni yaratish. Lateral fikrlash jarayonida pedagog quyidagilarni amalga oshira oladi:

- ✓ Yangi va amaliy g'oyalarning ko'p miqdorini oson qabul qilish;
- ✓ Stereotip fikrlashga konstruktiv munosabatda bo'lish;
- ✓ Muqobil echimlarni topish;
- ✓ Ob'ekt va hodisalarga xar tomonlama qarash ko'nikmalarni rivojlantirish;
- ✓ Analitik va tanqidiy fikrlashni ijodiy yondashuv bilan to'ldirish;
- ✓ Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun taassurotli xodisalarni yaratish;
- ✓ Bolalarning yoshiga mos rivojlanishlariga asoslangan o'qitishning yangi metodlari va usullarini yaratish.

Lateral fikrlash va unga xos bo'lgan refleksiv ko'nikmalar bu o'qituvchilik faoliyatining asosiy ko'nikmalari sifatida takomillashtirish mumkin.

Talabalarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning maqsadi va vazifalari, talabalarning ehtiyojlari, ko'nikmalarning tuzilishi, refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning o'ziga xosligi va ularning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shakllanganlig darajasini inobatga olgan holda tanlandi. Ushbu jarayon oldida turgan maqsad va vazifalarning tahlili, refleksiv ko'nikmalarni keyingi rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilimlar tizimini ajratishga imkon berdi.

NATIJARLAR

Refleksiya to'g'risidagi umumiy bilimlar:

- ✓ Refleksiyaning mohiyatini, uni o'rganishning psixologik va pedagogik yondashuvlari;
- ✓ Refleksiyaning turli ko'rinishlari va namoyon bo'lish shakllari;
- ✓ Refleksiyaning turli ko'rinishlarini egallash usullarini bilish;
- ✓ Refleksiv-pertseptiv tahlil to'g'risida tasavvurlar;
- ✓ Refleksiv faoliyatning mohiyati va komponentlari, uning vositalari va usullari;
- ✓ Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy refleksiyasining mohiyati;
- ✓ Boshlang'ich sinf o'qituvchisining refleksiyasini o'rganish va rivojlantirish metodlari;
- ✓ Empatiyaning mohiyati, undan foydalanish va uni egallash usullari; empatik qobiliyatlar, munosabatlar va tushuncha to'g'risidagi tasavvurlar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining refleksiv kasbiy ko'nikmalari to'g'risidagi bilimlar:

- Pedagogik kasbiy mahoratining xususiyatlarini bilish;
- Kasbiy faoliyat va pedagogik mahoratga tayyorgarlik tushunchasi, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratining mohiyati;
- Pedagogning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini;
- Tarbiya, o'qitish, muloqot, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy refleksiv munosabatining mohiyati, uning usullari va metodlari;
- O'qituvchining roli, kommunikativ kompetentligini mohiyati va tashkilotchilik qobiliyatlaridan tashkil topadi;
- Ijtimoiy-psixologik tomonning nazariy asosi V.N. Myasishev tomonidan ishlab chiqilgan shaxs munosabatlari kontseptsiyasi hisoblanadi [5]

XULOSA

Pedagogik refleksiya haqida umumiy xulosalar:

1. Pedagogik refleksiya boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik fikrlashining, pedagogik madaniyatining tashkiliy komponenti hisoblanadi.
2. Falsafiy, psixologik va pedagogik ilmiy adabiyotlar tahlili bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish modelini qurishga asosiy metodologik yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.
3. Tadqiqotimiz uchun pedagogik refleksiyaning refleksiv fikrlashdagi chuqur etnomadaniy ildizlari, o'zaro transformatsiyaga ega qobiliyatlarning implitsit va eksplitsit namoyon bo'lishi (aks etishi) sifatidagi mohiyati va xususiyatlarini aniqlash muhim hisoblanadi.
4. Lateral fikrlash boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik faoliyatining asosiy tashkil etuvchi jihatlaridan biri hisoblanadi. Uning asosida shakllantirilgan refleksiv ko'nikmalar bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyatida zarur sanaladi. Refleksiv ko'nikmalar – bu muamollarni ichki muhokama qilishga, muamollarni hal etishga, me'yorlar va harakatlarini izlashga izchil kirishish jarayoni hisoblanadi.
5. boshlang'ich ta'limga o'z hayotiy pedagogik tajribasini tahlil qila oladigan, qiyinchiliklarni engishga qodir bo'lgan jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarga tezkor moslasha oladigan o'qituvchilar kelishi kerak. Shu sababli boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik refleksiya va refleksiv ko'nikmalarning roli kuchayib boradi.
6. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning dolzarbligi jamiyatning refleksiv ko'nikmalarga ega o'qituvchiga ehtiyoji, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning mavjud nazariy va amaliy imkoniyatlarini umumlashtiruvchi va tizimlashtiruvchi kompleks yondashuvning zarurati bilan bog'liq.[4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi.
3. [32. Bono E. Lateralnoe myshlenie. – SPb., 1997
4. Otajonov Jamshidbek Mashrabjonovich Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish (dissertatsiya) Andijon-2020
5. 109 Мысашев V.N. Tizim lichnosti i otnosheniya cheloveka k deystvitelnosti // Psixologiya lichnosti. Teksty. — M., 1982.].